



**Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida Anvar Obidjon asarlarini
o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish**

**Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Pedagogika yo'nalishi 1-
kurs magistri
Ismayilova Nozima Maxmudovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy tafakkurini shakllantirishda Anvar Obidjon ijodining o'rni hamda uning asarlarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari yoritilgan. Maqolada o'quvchilarning mutolaa madaniyatini oshirishda interfaol metodlar va AKT imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Anvar Obidjon, bolalar adabiyoti, innovatsion texnologiya, interfaol metodlar, o'qish savodxonligi, multimedia, "Meshpolvon", badiiy tafakkur.

KIRISH

O'zbek bolalar adabiyotini Anvar Obidjon ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. U o'zining betakror uslubi, bolalar ruhiyatini teran anglashi va o'ziga xos yumori bilan nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan ijodkordir. Anvar Obidjon adabiyotimizga "bola bo'lib kirib kelgan" va umrining oxirigacha bolalikning beg'ubor olamini kuylagan shoir va yozuvchidir. Uning asarlari bugungi kunda ham boshlang'ich ta'lim tizimida asosiy o'quv manbalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Anvar Obidjon — o'zbek bolalar adabiyotining eng yorqin va betakror namoyandalaridan biri. Uning asarlari hazil-mutoyibaga boyligi, tili soddaligi va bolalar ruhiyatiga yaqinligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ta'lim tizimining bosh maqsadi o'quvchini mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga o'rgatishdir. O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon asarlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalqchil ruh, topqirlik va hazil-mutoyiba tuyg'usini shakllantirishda poydevor vazifasini o'taydi. Uning "Oltin yurakli Avtobola", "Meshpolvonning jangnomasi", "Ajinasi bor yo'llar" kabi asarlari o'quvchilarni ertaknamo dunyodan real hayot darslariga olib o'tuvchi ko'prikdir. Biroq, bugungi AKT rivojlangan davrda ushbu asarlarni an'anaviy usulda emas, balki innovatsion texnologiyalar yordamida o'rgatish dars samaradorligini kafolatlaydi.

Anvar Obidjon ijodining bosh xususiyati — an'anaviy pand-nasihatdan qochib, bolalar bilan do'stona, hazil-mutoyiba tilida muloqot qilishidir. U o'quvchini zeriktirmaydi, balki qahramonlari orqali hayot haqiqatlarini tushuntiradi. Shoirning "Oltin yurakli Avtobola", "Alamazon va uning piyodalari", "Meshpolvonning



jangnomasi” kabi asarlari o’zbek bolalar adabiyotida yangi sarguzasht-fantastika janrini shakllantirdi.

Anvar Obidjon yaratgan obrazlar — Meshpolvon, Avtobola, Eyvax kabi qahramonlar bolalarning eng sevimli do’stlariga aylangan. Masalan, Meshpolvon obrazi orqali shoir o’zbek ertaklaridagi polvon obrazini yangicha rakursda — zamonaviy, biroz sodda, lekin juda samimiy va adolatparvar qiyofada tasvirlaydi. Avtobola esa texnika asrining mo’jizasi bo’lib, u bolalarni mehribonlikka va do’stlikka chorlaydi. Bu qahramonlar o’quvchida mantiqiy fikrlashni va ijodiy tasavvurni rivojlantiradi. Shoirning she’riy to’plamlari ("Bezirgan", "Ketmagin, qushcham", "Ona yer") bolalar tilining naqadar boy va rang-barangligini ko’rsatadi. Uning she’rlarida kinoya, piching va quvnoq kulgi uyg’unlashgan. Anvar Obidjon bolalar tabiatidagi erkalik, qaysarlik va topqirlikni juda ustalik bilan she’rga solgan. Uning she’rlari sodda, ravon va yod olish uchun juda qulaydir.

Anvar Obidjon asarlarining darsliklarga kiritilishi o’quvchilarning lug’at boyligini oshirish bilan birga, ularda milliy iftixor tuyg’usini ham shakllantiradi. U o’z asarlarida ona tabiatni asrash, kattalarga hurmat va mehnatsevarlik kabi g’oyalarni “shirin” shaklda yetkazib beradi. Innovatsion texnologiyalar asosida shoir asarlarini o’qitish o’quvchilarning adabiy-estetik didini o’stirishda muhim omil bo’lmoqda. Anvar Obidjon o’zbek bolalar adabiyotini yangi bosqichga ko’tardi. Uning betakror namunadagi asarlari kelajak avlodni tarbiyalashda o’zining dolzarbligini yo’qotmaydi. Shoir aytganidek, adabiyot bolalarni faqat kuldirish emas, balki kulgi orqali o’ylashga ham o’rgatishi kerak. Anvar Obidjon aynan mana shu vazifani sharaf bilan bajargan betakror siymodir.

Boshlang’ich sinflarda Anvar Obidjon asarlarini o’qitish uchun quyidagi 3ta metodlarni keng tavsiya etiladi. Ushu metodlar o’quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash malakalarini rivojlantirishda yaqindan yordamchi bo’la oladi.

1. "Digital Storytelling" (Raqamli hikoya) texnologiyasi.

Anvar Obidjon asarlari sarguzashtlarga boy. Masalan, “Oltin yurakli Avtobola” asarini o’qitishda o’quvchilarga asar qahramonlarining harakatlarini multimedia vositalari orqali kichik animatsiya yoki slayd-shou ko’rinishida taqdim etish mumkin. Bunda: O’quvchilar o’zlari yoqtirgan personajlar (masalan, Avtobola yoki Meshpolvon) ishtirokida komikslar yaratishadi yoki asar syujetini rasmga asoslangan “Kadrlar ketma-ketligi” orqali so’zlab berishadi. Bu texnologiya orqali o’quvchilarning og’zaki nutqi rivojlanadi, esda saqlab qolish xususiyati mustahkamlanadi.



2. “Venn diagrammasi” va qahramonlar tahlili.

Anvar Obidjon qahramonlari juda hayotiy va xarakterli. O’quvchilarga Meshpolvon va an’anaviy ertak polvonlarini (masalan, Rustam yoki Alpomish) qiyoslash topshiriladi. “Venn diagrammasi” orqali ularning o’xshash (botirlik, kuch) va farqli (hajalkashlik, soddalik, sarguzashtsevarlik) jihatlari aniqlanadi. Bu bolalarda qiyosiy tahlil ko’nikmasini oshiradi.

3. “Sinfdagi teatr” va Gamifikatsiya (O’yinlashtirish).

Anvar Obidjon asarlaridagi dialoglar (suhbatlar) juda jonli. Tavsiya qilingan metod juda ham mos va darsni qiziqarli o’tishiini ta’minlaydi. “QR-kodli topshiriqlar”. Yozuv taxtasiga QR-kodlar osiladi. Har bir kod ostida Anvar Obidjon she’ri yoki hikoyasidan parcha va o’sha parchani sahnalashtirish topshirig’i yashiringan. O’quvchilar guruhlariga bo’linib, “jonli sahna” yaratadilar.

Anvar Obidjon asarlarini o’qitishda AKT va interfaol metodlar (masalan, Wordwall yoki LearningApps platformalarida yaratilgan krossvordlar) qo’llanilganda, o’quvchilarning asarni o’qishga bo’lgan motivatsiyasi 40-50% ga ortishi kuzatildi. Bolalar faqatgina matnni o’qib qolmay, undagi yashirin kinoya va tarbiyaviy ma’noni o’yinlar orqali tezroq anglab yetdilar.

XULOSA

Boshlang’ich sinflarda Anvar Obidjon asarlarini innovatsion yondashuvlar asosida o’qitish o’quvchining lug’at boyligini oshirish bilan birga, unda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Bu esa kelajakda komil inson bo’lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.